NUTQIY KAMCHILIKLARI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nigora Azizovna Egamberdiyeva
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi phd
CHDPU Pedagogika fakulteti
Chirchiq shahri O'zbekiston Respublikasi
azizovnanigora@gmail.com
+998 91 777 17 09
Shoxzoda Orif qizi Madiyarova
Maxsus pedagogika (logopediya) 3-bosqich talabasi
CHDPU Pedagogika fakulteti
Chirchiq shahri O'zbekiston Respublikasi
madiyarovashoxzoda@gmail.com
+99897-249-04-09

Annotatsiya: Maqolada nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Bunday shaxslarning ruhiy holati, insonlar bilan bo'ladigan munosabatlardagi qiyinchiliklar va nutqiy kamchiliklarning turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.
Аннотация: В статье рассматриваются психологические особенности детей с нарушениями речи. Приведены сведения о психическом состоянии таких лиц, трудностях в отношениях с людьми и видах речевых недостатков.
Abstract: This article examines the psychological characteristics of children with speech disorders. Information is provided on the mental state of such individuals, difficulties in relationships with people, and types of speech defects.
Kalit so'zlar: Nutqiy muammolar, dislaliya, dizartriya, alaliya, duduqlanish, psixologik xususiyat, ruhiy holat.
Ключевые слова: Речевые проблемы, дислалия, дизартрия, алалия, заикание, психологическая особенность, психическое состояние.
Keywords: Speech problems, dyslalia, dysarthria, alalia, stuttering, psychological characteristic, mental state.

Kirish

Nutq kishilar o'rtasida o'zaro aloqa jarayoni va tafakkur faoliyatining mexanizmi sifatida qaraladi, psixologlar uning o'zaro uzviy aloqada bo'lgan ikkita funksiyasini ajratib ko'rsatadilar:

1) aloqa (kommunikativ funksiya);
2) tafakkur (nutqiy tafakkur funksiyasi).

Kommunikativ nutq, o'z navbatida, xabar berish va harakatga da'vat etish funksiyalarini bajaradi. Nutq u yoki bu predmetlar, hodisalar, xatti-harakatlar, sifatlar, belgilar va boshqa faoliyatlarni bildirgani tufayli, fikrlarni ifodalash vositasi sifatida foydalaniladi. Biroq nutqning ahamiyati tafakkur jarayonida bu bilan cheklanmaydi. Tilni ijtimoiy-belgili tizim sifatida o'zlashtirar ekan, odam til bilan uzviy aloqada bo'lgan tafakkurning mantiqiy shakllari va operatsiyalarini ham egallab boradi. Nutq atrof voqelikdagi predmetlar va hodisalarni analiz va sintez qilish, solishtirish va umumlashtirish vositasiga aylanadi. Nutq turlari va nuqsonlarining tasnifi (klinik-pedagogik A. Kusmaul tasnifi) va (psixologik-pedagogik R.Y.Levina tasnifi) bo'yicha turlarga

ajiratiladi. Nutq ko'plab fanlarning tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qilganligi bois shu fanlar nuqtayi nazaridan murakkab va o‘zaro moslashgan fiziologik mexanizm hisoblanadi.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi

Nutq bu - akustik o‘zgarishlar majmuyi, lingvistik konstruksiyalar tizimidir. Axborotni qabul qilish, saqlash, uzatish va ishlab chiqish jarayoni ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Nutq oliy psixik funksiyalar tizimida yetakchi o‘rin egallaydi hamda kishilarning yaratuvchanlik faoliyatida til vositasida o‘zaro muloqotning asosiy shakli bo’lib xizmat qiladi. L.S.Vigotskiy bola nutqining uning atrofidagi katta kishilar ta’siri ostida shakllanish mexanizmlarini ko'rsatib o’tgan. Avval kattalar unga nutqiy ko‘rsatmalar beradilar masalan: («qo’lingni ko’tar», «koptokni ber» va shu singari qisqa gaplar), bunga javoban bola nomi aytilgan predmetni ko'zi bilan qidirib topadi va aytilgan vazifani bajaradi.[1] Bola faqat o'zi nutqni egallagandagina, o'ziga-o'zi buyruqlar, nutqiy ko‘rsatmalar berishni boshlaydi (dastlab ovoz chiqarib, so’ngra ichida) va o‘z xatti-harakatlarini ularga bo'ysundiradi, ya’ni bola va katta odam o‘rtasida taqsimlangan funksiya endi shaxsning psixik faoliyatining oliy shakllarini tashkil etish usuliga aylanib boradi. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanish qonuni ham aynan mana shundan boshlanadi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda odatda MNS (markaziy nerv sistemasi) da funksional yoki organik buzilishlar kuzatiladi. Albatta bu nutq buzilishining qaysi turi ekanligiga bog’liq. Masalan: dislaliya nutq nuqsonida asosan artikulyatsion apparatda kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriya nutq nuqsonida esa markaziy nerv sistemasidan chiquvchi 12 juft nervlarning innervatsiyasida buzilishlar bo’lganligi sababli artikulyatsion apparatda ham bir qancha kamchiliklar, tovushlar talaffuzida muammolar yuzaga keladi. Miyaning organik shikastlanishi bu bolalarning issiqqa, dimlikka, transportda yurishga, uzoq vaqt arg‘imchoqda tebranishga chidamsiz bo‘lishiga sabab bo’ladi, bunday bolalar odatda bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi va bosh aylanishidan shikoyat qiladilar. Nutqida kamchiligi bo’lgan bolalarning ayrimlarida turli xil harakat buzilishlari kuzatiladi: muvozanatning buzilishi, harakat koordinatsiyasi, qo‘l barmoqlari va artikulyatsion harakatlarning differensiatsiyalanmaganligi (ya’ni umumiy va og‘zaki praksisning shakllanmaganligi). Bunday bolalar tez charchaydilar va har qanday faoliyatdan tez zerikib qolishadi. Ular ta’sirchanlik, yuqori qo‘zg‘aluvchanlik, harakat tormozlanishi bilan tavsiflanadi, tinch o‘tira olmaydilar, qo‘llarida nimanidir tortqilashlari, oyoqlarini silkitishlari kuzatiladi. Ular hissiy jihatdan beqaror, kayfiyatlari tez-tez o‘zgarib turadi. Kayfiyatning buzilishi tajovuzkorlik, vasvasa, bezovtalik bilan namoyon bo‘ladi. Bolalarda ko’p hollarda giperaktivlik kuzatiladi. Ancha kam hollarda ularda tormozlanish va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar ancha tez charchaydilar, shu bilan birga bu charchash kun davomida kechga tomon, shuningdek, hafta oxiriga borib to‘planib boradi. Charchash bolaning umumiy xulq-atvoriga, o‘zini qanday his qilishiga ta’sir qiladi. Bu bosh og‘rig‘ining kuchayishi, uyquning buzilishi, lanjlik yoki aksincha, harakat faolligining oshishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday bolalarning butun dars davomida o‘tirishi, ish qobiliyati va ixtiyoriy diqqatini saqlab turishi qiyin bo‘ladi. Ularning harakat tormozlanmaganligi shunda ifodalanishi mumkinki, ular darsda o‘tirganlarida, o‘rinlaridan turganlarida, sinfda yurganlarida, dars vaqtida koridorga yugurib chiqqanlarida

1. [1] G. O. Umrzoqova “NUTQIDA KAMCHILIGI BO‘IGAN BOLALARNING UMUMIY PSIXOLOGIK TAVSIFNOMASI” YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI” in-academy.uz/index.php/yo https://doi.org/10.5281/zenodo.11126226.

harakat bezovtaligini namoyon qiladilar. Tanaffusda bolalar haddan tashqari qo‘zg‘aluvchan bo‘ladilar, tanbehlarga javob bermaydilar, tanaffusdan keyin esa darsga zo‘rg‘a e’tibor beradilar. Odatda, bunday bolalarda diqqat va xotiraning, ayniqsa, nutqning beqarorligi, og‘zaki ko‘rsatmalarni tushunishning past darajasi, nutqning tartibga solish funksiyasining yetarli emasligi, o‘z faoliyatini nazorat qilishning past darajasi, bilish faoliyatining buzilishi, aqliy mehnat qobiliyatining pastligini ko’rish mumkin.

Natijalar

Dizartrik bolalar o‘zlarining klinik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra bir-biriga o’xshamagan guruhni tashkil qiladi. Shu bilan birga, nuqsonning og‘irligi va psixopatologik og‘ishlarning og‘irligi o‘rtasida bog‘liqlik uchramaydi. Masalan, dizartriya va uning eng og‘ir shakllari intellekti saqlanib qolgan bolalarda kuzatilishi mumkin, yengil ko‘rinishlari esa intellekti saqlanib qolgan bolalarda ham, oligofreniya bilan kasallangan bolalarda ham uchrashi mumkin. "Dizartrik bolalarni klinik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra, ularning umumiy psixofizik rivojlanishiga qarab shartli ravishda bir nechta guruhlarga bo‘lish mumkin:

- psixofizik rivojlanishi me’yorda bo‘lgan bolalarda dizartriya;
- BSF bilan og’rigan bolalarda dizartriya;
- oligofreniya bilan kasallangan bolalarda dizartriya;
- gidrotsefaliyali bolalarda dizartriya;
- RRS bolalarda dizartriya;
- minimal miya disfunksiyasi bo‘lgan bolalarda dizartriya.

Dizartriyaning ushbu turlari maxsus maktabgacha tarbiya va maktab muassasalaridagi bolalar o‘rtasida ko‘proq uchraydi. Ularda nutqning tovush talaffuzi tomoni yetishmovchiligi bilan bir qatorda, odatda, diqqat, xotira, intellektual faoliyat, hissiy-irodaviy sohaning keskin ifodalanmagan buzilishlari, yengil harakat buzilishlari va bir qator oliy po‘stloq funksiyalarining sekin shakllanishi kuzatiladi. Emotsional-irodaviy buzilishlar asab tizimining yuqori emotsional qo‘zg‘aluvchanligi va toliqishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Hayotining birinchi yilida bunday bolalar bezovta bo‘ladilar, ko‘p yig‘lashi, o‘zlariga doimiy e’tibor talab qilishi kuzatiladi. Ularda uyqu, ishtaha buzilishi kuzatiladi. Maktabgacha va maktab yoshida ular harakatchan-beqaror, jahldorlikka, kayfiyatning o‘zgaruvchanligiga, shoshqaloqlikka moyil bo‘ladilar; ko‘pincha qo‘pollik, itoatsizlik ko‘rsatishlari mumkin. Harakat bezovtaligi charchoq paytida kuchayadi; ba’zilar isteroid tipidagi reaksiyalarga moyil bo‘ladi. Ya’ni o‘zini polga tashlaydi va qichqiradi. Boshqalar qo‘rqoq, tormozlangan, qiyinchiliklardan qochadi, muhit o‘zgarishlariga yomon moslashadigan ko’rinishlari ham mavjud.

Muhokama

Duduqlanishning ko‘rinishlarida nutq va umumiy motorikaning turli xil buzilishlari kuzatiladi, ular zo‘ravonlik (nutq tutqanoqlari, tiklar, yuz, bo‘yin mushaklaridagi mioklonuslar) va ixtiyoriy hiyla-nayranglar bo‘lishi mumkin. Hiyla-nayranglarga duduqlanuvchilar o‘zlarining qiyin nutqlarini niqoblash yoki yengillashtirish uchun foydalanadigan yordamchi harakatlar hisoblanadi. Ko‘pincha duduqlanuvchi bolalarda umumiy motor zo‘riqishi, harakatlarning cheklanganligi yoki harakat bezovtaligi, tormozlanishning yo‘qolishi, diskoordinatsiya yoki sustlik kuzatiladi. Nevrotik buzilish rivojlanadigan asosiy hodisalardan biri o‘zini to‘liq emas deb his qilishdir. N.I.Jinkin ta’kidlashicha, duduqlanuvchi bolalar o’z nutqi natijasidan xavotirlanishi qanchalik kuchayib borsa va talaffuz nuqsonli deb baholansa, nutqning o‘z-o‘zini boshqarishi shunchalik kuchli buziladi. Bu holat bir necha marta takrorlangandan so‘ng patologik shartli

refleksga aylanadi va endi nutq boshlanishidan oldin tez-tez paydo bo‘la boshlaydi. Duduqlanishni o‘rganuvchilar "nuqsonga bog‘liqlik" tushunchasiga turli xil mazmunni kiritadilar: diqqatning maxsus xususiyati (barqaror, diqqatni jamlash), nuqsonni anglash, u haqida tasavvur, unga turli xil hissiy munosabat (tashvish, xavotir, qo‘rquv,). Turli yoshdagi duduqlanuvchilar bilan ishlash tajribasi va psixologiyada tizimli yondashuvning umumiy tamoyillariga tayanib, duduqlanuvchilarda psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va harakatlarning integral o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan fiksatsiya hodisasining paydo bo‘lishi va rivojlanishining psixologik modelini taqdim etish mumkin. Duduqlanuvchilar bilan erkin so‘zlovchilar o‘rtasidagi farq u yoki bu faoliyatning mahsuldorlik darajasi bilan emas, balki uning kechish xususiyati bilan ifodalanadi. Duduqlanuvchi bolalarda nuqsonga dastlabki beixtiyor emotsional javob berishdan asta-sekin emotsional kechinmalar bilan bog‘liq bo‘lgan unga nisbatan o‘z munosabatlari shakllanib boradi va irodaviy zo‘r berishlarda (xatti-harakatlarda), duduqlanishga qarshi mustaqil va muvaffaqiyatsiz kurashda aks etadi. Duduqlanuvchi shaxslarda ruhiy jarayonlar o’z nutqlariga bo’lgan munosabatni yosh toifalariga bo’lib o’rganish mumkin va quyida siz buni 3 ta darajada ko’rib chiqishingiz mumkin bo’ladi.

1. Yengil daraja: bolalar nuqsonni anglashdan siqilishni his qilmaydilar yoki uni umuman sezmaydilar. Uyatchanlik, o‘zining noto‘g‘ri nutqi uchun xafa bo‘lish, nuqsonni bartaraf etishga urinish elementlari yo‘q.

2. O‘rtacha daraja: katta maktab o‘quvchilari va o‘smirlar o‘z nuqsonini boshdan kechiradilar, undan uyaladilar, yashiradilar, turli xil hiyla-nayranglarga murojaat qiladilar, kamroq muloqot qilishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining duduqlanishlarini biladilar, bundan bir qator noqulayliklarni his qiladilar, o‘z kamchiliklarini yashirishga harakat qiladilar.

3. Yuqori daraja: duduqlanuvchilarda nuqson haqidagi kechinmalar har bir xatti-harakat nutqiy nuqson prizmasi orqali tushunilganda, doimiy og‘ir norasolik hissiga aylanadi. Bular ko‘pincha o‘smirlardir. Ular nutqiy muvaffaqiyatsizliklarga e’tiborni qaratadilar, ularni chuqur his qiladilar, ular uchun kasallikka berilish, og‘riqli shubha, nutqdan odamlardan vaziyatlardan va boshqalardan qo‘rqish va o’zini odamlardan olib qochish holatlari kuzatiladi.Nutq kamchiligini anglash, undan qutulish yoki hech bo‘lmaganda niqoblash uchun muvaffaqiyatsiz urinishlar duduqlanuvchilarda turli xil psixologik xususiyatlarni keltirib chiqaradi: zaiflik, himoyasizlik, qo‘rqoqlik, tortinchoqlik, ishonuvchanlik va h.k. Hozirgi vaqtda duduqlanuvchilarning individual psixologik xususiyatlarini nafaqat chuqurroq o‘rganishga, balki ular bilan olib boriladigan logopedik ishlarning asosli psixoterapevtik yo‘nalishi uchun guruhlarni ushbu xususiyat bo‘yicha to‘ldirishga harakat qilinmoqda.

Alaliyali bolalarda ko‘pgina oliy psixik funksiyalar (xotira, diqqat, tafakkur va boshqalar), ayniqsa ixtiyoriylik va onglilik darajasida rivojlanmaganligi qayd etiladi. Bolalarda odamovilik, negativizm, o‘ziga ishonmaslik, zo‘riqish holati, yuqori darajadagi jizzakilik, xafa bo‘lish, yig‘lashga moyillik yuqori bo’ladi. Bunday bolalarning psixik holati beqarordir, shu munosabat bilan ularning ish qobiliyati keskin o‘zgarib turadi. Psixosomatik farovonlik davrida bunday bolalar o‘qishda ancha yuqori natijalarga erishishlari mumkin. MNS ning funksional buzilishlari bo‘lgan bolalar emotsional reaktiv bo‘ladilar, osongina nevrotik reaksiyalar beradilar va hatto o‘qituvchi va bolalar tomonidan tanbehga, yomon bahoga, hurmatsiz munosabatga javoban tez xafa bo‘ladilar. Ularning xulq-atvori negativizm, yuqori qo‘zg‘aluvchanlik, tajovuzkorlik yoki aksincha, yuqori darajadagi tortinchoqlik, qat’iyatsizlik, qo‘rqoqlik bilan tavsiflanishi mumkin.

Xulosa: Mening fikrimcha yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni aytishim mumkinki nutqiy kamchiliklari bo'lgan bolalarni biz ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Nutq buzilishlarining ba'zi turlarida bolalar juda asabiy, giperaktiv o'z nutini namoyon qilishdan uyalmaydigan bo'lsa, ba'zi bolalarda buning mutlaqo aksini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni bola uyalchang, hammadan o'zini chetga oluvchi tez hafa bo'lishga yig'loqilikka moyil bo'lishi mumkin. Albatta bu nutq kamchiligining turiga bolaning yoshi va xarakter-xususiyatlariga ham bog'liq. Nutq kamchiligi erta aniqlanib bola bilan muntazam ravishda sistemali ishlash bola nutqining me'yorga kelishiga va bolada kelib chiquvchi salbiy hislatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu borada biz albatta pedagoglar va tibbiyot hodimlariga murojaat qilishimiz zarur. Nevropatolog, psixonevrolog, pediatr va shu kabi tibbiyot hodimlari MNS dagi bo'lgan buzilishlarni medikamentoz davolash usullari orqali davolasa, logoped va psixolog bolaning nutqiy va ruhiy jarayonlarini me'yorga keltirish bo'yicha tizimli ish olib borishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Татяна Александровна " Психологические особенности детей с нарушениями речи" https://nsportal.ru/cyganova-tatyana-aleksandrovna Опубликовано 01.07.2013
2. G. O. Umrzoqova "NUTQIDA KAMCHILIGI BO'IGAN BOLALARNING UMUMIY PSIXOLOGIK TAVSIFNOMASI" YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI" in-academy.uz/index.php/yo https://doi.org/10.5281/zenodo.11126226.
3. Михейкина Диляра Ильдусовна. "Психологические особенности детей с нарушением речи" https://nsportal.ru/ 22.10.2019